

**ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA TAQDIR  
MIFOLOGEMASI VA BADIY G'OYA UYG'UNLIGI**

***Isroilova Maxtuma Ne'matillayevna***

*Toshkent amaliy fanlar universiteti,  
1-bosqich magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatida taqdir mifologemasining badiiy g'oya bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Shoirning lirik asarlarida taqdir timsoli orqali inson ruhi, hayot falsafasi, vatanparvarlik va ilohiy qudrat haqidagi qarashlari poetik vositalar orqali olib berilgan. Tahlil davomida mifologik obrazlarning poetik tizimdagi funksiyasi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Oripov, taqdir, mifologema, poetika, badiiy g'oya, ramz, milliy tafakkur.

O'zbek she'riyatida inson taqdiri, uning hayotdagi o'rni, erkinlik va qismat masalalari azaldan muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu mavzular falsafiylik va ichki ruhiy tahlil bilan boyidi. Abdulla Oripov ana shu mavzularni o'zining poetik dunyoqarashi orqali yuqori darajada yoritgan shoirlardan biridir. Uning ijodida taqdir tushunchasi oddiy voqelik emas, balki ramziy, metaforik va mifologik obrazlarda aks etadi.

Ilmiy adabiyotlarda "mifologema" tushunchasi miflarning badiiy asardagi poetik shakliga aylangan elementlarini anglatadi<sup>[1]</sup>. Ular xalq ongida qadimdan shakllangan timsollar orqali asarda chuqur semantik yuklamaga ega bo'lgan obrazlar sifatida qatnashadi. Bu holat Abdulla Oripov she'rlarida juda yaqqol kuzatiladi. Ayniqsa, "Taqdir", "Qiyomat" singari she'rlarda mifologik obrazlar va badiiy g'oya bir-birini to'ldirib, falsafiy mazmun hosil qiladi.

Abdulla Oripov she'riyatida taqdir mifologemasining badiiy g'oya bilan qanday uyg'unlashganini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilib chiqamiz.

Adabiy tafakkurda taqdir mavzusi qadimdan mavjud bo'lib, u insonning irodasi, hayotiy yo'li va yuksak kuchlar bilan bog'liq munosabatlarini aks ettirgan. Bu mavzu Sharq she'riyatida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida ham muhim o'rinni egallagan. Abdulla Oripov esa bu an'anani zamonaviy tafakkur, yangi badiiy shakl va uslub bilan boyitdi.

[1] Zaripov, A. Abdulla Oripov tabiat poetikasida lirik qahramon masalasi // Tadqiqotlar.uz. – 2023. – URL:

<https://tadqiqotlar.uz/index.php/tadqiqotlar//view/1222>

Shoirning "Qora taqdir" nomli she'rida taqdir tushunchasi hayotiy kurash, fofia va najot ramzi sifatida talqin etiladi:

Qora taqdir, sendan holi yasharmi olam,  
Yasharmikan zug'umingdannola chekmay to.  
Qora taqdir, qaysi qudrat senda bo'l mish jam,  
Soqqaq qilib o'ynagaysan o'limni xatto.

Qora taqdir, noming asli ayovsiz qismat,  
Duch qilding sen odamzodnimudom bir korga.  
Iblis bo'lsang, umrim bo'y়i o'qirman lanat,  
Hasratimni aytgum yolg'iz Parvardigorga.

Bu misralarda taqdir inson uchun noma'lum, lekin javob izlashga majbur qiluvchi kuch sifatida tasvirlangan. Shoir bu yerda taqdirni o'zgaruvchan, noaniq va shu bilan birga, inson ongini sinovdan o'tkazuvchi kuch sifatida ko'rsatadi. Bunday yondashuvda mifologik fikrlash unsurlari yaqqol seziladi, ya'ni taqdir shunchaki hayotiy zaruriyat emas, balki o'ziga xos timsolli kuch, "dunyoning yozilmagan qonuni" sifatida tushuniladi<sup>[2]</sup>.

Oripov ijodida bu kabi mifologemalar birgina tushuncha bilan cheklanmaydi. Taqdirga qarshi kurash, unga bo'ysunmaslik, ba'zan esa bo'ysunishga majburiyat ham she'rlarida mujassam. Bu poetik ziddiyat sifatida lirk qahramon ichki kechinmasida ifodalanadi.

Dunyoga kelibman o'zim bilmayin,  
Ketaman yana ham xuddi shu hol.  
Boshimda javobsiz savollar g'ami,  
Ko'nglimda o'zligimdan bir savol...

Bu satrlar insonning dunyoga kelishi va ketishini taqdir belgilab qo'ygan degan qadimiylar mifologik g'oyaning davomidir. Bu yerda shoir o'zining lirk qahramoni orqali "taqdir — borliqni belgilovchi ilohiy kuch" degan tasavvurni badiiy talqin qiladi.

Abdulla Oripovning she'riy tafakkurida taqdir tushunchasi ba'zan hayotdagি murakkablik, sinov va sabr timsoliga aylansa, ba'zida u inson ma'naviy o'sishining omili sifatida talqin qilinadi. Shoirning "Qiyomat" she'rida bu holat yanada murakkab falsafiy-badiiy ifoda topadi:

[2] Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 198

Bir kuni Muhammadga berdilar savol:  
-Ayo, Rasululoh, aytib ber buni.  
Qachon Foniy dunyo topgaydur zavol,  
Qachon sodir bo'lgay Qiyomat kuni.

Garchand Biru Borga somedir Inson,  
Iblis qutqusi hamhar qayda bordur.  
Kimningdir dilida sobitdir imon,  
Kimgadir shaytoniy vasvasa yordir.

Bu yerda “qiyomat” nafaqat diniy-mifologik tushuncha sifatida, balki inson ruhiy kechinmalarining eng yuqori bosqichi, ichki sinov va inqirozning timsoli sifatida talqin qilinmoqda. Shoir uchun qiyomat tashqi falokat emas, balki inson ongida ro'y beradigan katta o'zgarish, ya'ni ichki qiyomatdir. Bu esa taqdirning insonga nisbatan individual va ruhiy-axloqiy mezonlar asosida ifodalanishini ko'rsatadi<sup>[3]</sup>.

Abdulla Oripovning bu kabi yondashuvi uni o'z davridagi boshqa shoirlardan ajratib turadi. U uchun mifologema bu faqat obraz emas, balki poetik konsepsiyaning markaziy elementidir. U miflarni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki zamonaviy ong va hayotiy mushohada bilan uyg'unlashdirib beradi. Bu esa uning ijodini chuqr falsafiy qatlam bilan boyitadi.

Abdulla Oripovning “O'zbek qomusi” she'rida taqdir mifologemasi bilan milliy g'urur, vatanparvarlik va tarixiy xotira uyg'unlashadi. Bu she'rda muallif o'z hayoti va o'limi taqdirini Vatan bilan bog'laydi. Bu hol poetik talqinda taqdirni irodali tanlov, ongli qaror sifatida ham aks ettiradi:

Shoir uchun bu yerda taqdir - Vatanga daxldorlik, muqaddaslik va ajdodlar ruhi bilan bog'lanish vositasidir. Bu yondashuvda mifologema timsoliga ajdodlar, ona zamin, milliy ruh kirib keladi. Taqdir endi ilohiy kuch emas, balki milliy ong bilan uyg'unlashgan ruhiy tanlovdır. Bu esa poetik tafakkurning yuksak bosqichidir.

Abdulla Oripov lirikasida taqdir motivi ko'pincha ijtimoiy ong, tarixiy jarayonlar va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda chiqadi. Aynan shu jihat bilan uning she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida mavqe kasb etadi. Z. Rasulova o'z tadqiqotida buni quyidagicha ifodalaydi: “Shoirning poetik tafakkurida mifologik obrazlar ijtimoiy-estetik pozitsiyani aks ettiruvchi ramzlar bilan uyg'unlashadi”<sup>[4]</sup>.

[3] Oripov A. Ilohiy komediya (Dante tarjiması). – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2001.

[4] Rasulova, Z. Uslub va poetika: lingvopoetik tahlil asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2017. – 276 b.

Ham Temurbek, ham Ulug’bek, Alisher, Bobur,  
Sizlar tuzgan ul saltanat-Saltanat bo’ldi.  
Ulug’ tarix Turkistongacho’ng guvoh erur,  
Davlat edik, davlat edik, u davlat bo’ldi!  
Bu satrlar shoir shaxsiy taqdirini xalq taqdiri bilan qo’shamdi. Demak, taqdir endi nafaqat ilohiy, balki milliy, ijtimoiy, tarixiy tushunchalar bilan boyiydi. Bu uyg‘unlik badiiy g‘oyaning mukammal ifodasidir.

Shoirning “Hayot” she’rida taqdir timsoli tarixiy-falsafiy mazmun bilan boyitiladi. Bu asarda insoniyat taqdiri, tarixiy qatlamlar va vaqt to’lqinlari orqali ifodalanadi. She’rda yer yuzining abadiy aylanishi, davlatlarning o’sib-sinchishi, imperiyalar qulashi, inson orzularining so’nishi kabi g‘oyalar orqali shoir global taqdir masalasini ko’taradi:

Afsus, ne-ne insonlar  
Tark etdilar olamni,  
Qaytmadilar, to’ksam ham  
Ko’zimdagisi jolamni.

Bu satrlar orqali insoniyat taqdiri vaqt va tarix oldida ojiz, ammo doimiy harakatda ekanligi ko’rsatiladi. Taqdir bu yerda insoniyatning tarixiy xotirasi, tamaddunlar xotirasi sifatida aks etadi. Shoir uchun bu metafora orqali insonning taqdiri - tarixiy xotiraning bir bo’lagidir. Mifologik tafakkurda vaqt doiraviy, aylana tarzida tasavvur qilinadi<sup>[5]</sup>, va Abulla Oripov buni poetik anglashda o’ziga xos tarzda aks ettiradi.

Abdulla Oripov ijodining boshqa bir qirrasi - bu jahon adabiyotidagi falsafiy asarlar bilan badiiy muloqotidir. Jumladan, uning Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” asarini tarjima qilgani va bu orqali o’z she’riyatida ham dunyoviy va ilohiy taqdir g‘oyalarini uyg‘unlashtirgani diqqatga sazovordir. Shoir bu asarni tarjima qilish orqali nafaqat adabiy xizmat ko’rsatgan, balki uni o’z poetikasiga chuqr singdirgan:

Har bir so’zim - savoldir Tangriga,  
Har bir jimligim - yozilmas duodir.  
Har bir nafas - tub yurakdan kelar,  
Har sukutim - ilohiy bir faryoddir.

Bu satrlarda inson va Tangri orasidagi suhbat — savol va sukut orqali yuritiladi. Taqdir bu yerda Tangri bilan aloqa, javob kutish, sukunatning semantik kuchi bilan belgilangan. Bu esa Dante asaridagi ilohiy yozuv va muqaddas hukm konsepsiyasiga yaqinlashadi<sup>[6]</sup>.

[5]Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O’zbekiston, 2007. – B. 103.

[6]Oripov A. Ilohiy komediya (Dante tarjimasi). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001.

Shunday qilib, Abdulla Oripov she'riyatida taqdir g'oyasi nafaqat milliy, balki jahon falsafiy tafakkuridagi timsollar bilan ham uyg'unlashadi. Bu uning poetikasiga chuqurlik, tafakkuriy qatlama va estetik mukammallik baxsh etadi.

Abdulla Oripov she'riyatida mifologik obrazlarning yana bir yirik manbai - xalqona ramzlar va arxetiplardir. Shoир she'riyatida ijtimoiy-falsafiy hayot va tabiat hodisalari hamisha ramziy va poetik ma'noda ishtirok etadi. Bu obrazlar ham taqdirning turli qirralarini aks ettiradi. Shoирning "Tilla baliqcha" she'ri - insonning taqdiriy manzili, suv - hayot va jtimoiy beqarorlik, erkinlikning ojizligi va butun jamiyat tuzumiga poetik-hissiy tazyiqi sifatida talqin qilinadi.

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni  
Shu loyqa hovuzga tamom otdilar.  
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,  
Xoru xas, xazonlar ustин yopdilar.  
Dunyoda ko'rgani shu tor havuzcha  
Va gavjum tollarning achchiq hazoni.  
Menga alam qilar, tilla baliqcha  
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyon !

"Tilla baliqcha" she'ri Abdulla Oripovning sotsial-falsafiy badiiy talqinlaridan biri bo'lib, unda taqdir shaxs salohiyatini cheklash vositasi sifatida ko'tariladi. Shoир bu obraz orqali ijtimoiy beqarorlik, erkinlikning ojizligi va butun jamiyat tuzumiga poetik-hissiy tazyiqni ifoda etadi.

Taqdir motivining poetik ishlanishida xalq og'zaki ijodining ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Oripov folklor timsollarini zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtira olgan shoirlardan biridir. U do'st-dushman, savol-javob, o'tkinchi hayot, mangu haqiqat kabi mavzularni xalq og'zaki adabiyotidan olib, o'z ijodida badiiy-falsafiy g'oyaga aylantiradi.

Shuningdek, shoирning sukunat, jimlik, yolg'izlik, ichki sukut ham bir ramziy mifologemaga aylantirilgan. Ular ko'pincha shoир tafakkurida taqdirning ichki in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Taqdir ham aynan shu jimlik ichra mujassam bo'ladi. Z. Rasulova bu holatni tahlil qilib, "Oripov poetikasida jimlik ham o'ziga xos estetik obrazga aylangan" deb ta'kidlaydi<sup>[7]</sup>

Ushbu sherlari orqali inson qalbining cheksizligini, taqdir hatto o'zi yaratgan yurakdan ham ortiq kuchga ega emasligini ta'kidlaydi. Bu esa Oripov falsafasining eng yuksak nuqtalaridan biridir.

Abdulla Oripovning poetik olami faqatgina lirik obrazlar va badiiy ifodalar orqali emas, balki chuqur mifologik qatlama orqali ham boyitilgan.

[7] Rasulova Z. *Uslug va poetika: lingvopoetik tahlil asoslari*. – Toshkent: Tafakkur, 2017. – 276 b.

Uning taqdirga doir qarashlari inson ruhiyati, tarix, milliylik va ilohiylik oralig‘ida shakllangan keng poetik konsepsiyani tashkil etadi. Mifologik obrazlar orqali u o‘z lirik qahramonining dardu iztirobini, umid va ishonchini ifodalashda muvaffaqiyatli yo‘l tutgan.

Shoir uchun taqdir - bu ongli izlanishlar, ichki kurashlar, tarixiy xotira va ilohiy ishora bo‘lib xizmat qiluvchi konsepsiyadir. Aynan shu yondashuv uni o‘z zamonasining yetuk fikr va tuyg‘u sohibi sifatida tanitadi

Taqdir - bu yuksak ilohiy hukm bo‘lishi bilan birga, shoir uchun har bir satr, har bir og‘riq, har bir sukunatda mujassam hayotiy haqiqatdir. Shoir insoniylik mezonlarini taqdir bilan uyg‘unlashtiradi. Uning nazarida inson taqdiri – bu faqatgina boshdan kechirilgan voqealar ketma-ketligi emas, balki tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatdir.

Abdulla Oripovning poetik tafakkuri bizni xalq og‘zaki ijodi, sharqona hikmat, islom falsafasi, hatto g‘arb adabiyotining chuqur qatlamlari bilan muloqotga chorlaydi. Uning she’riyati orqali taqdir tushunchasi yangicha ma’no kasb etadi: u faqat ilohiy taqdir emas, balki ijodkor ongida yaratilgan poetik konsepsiyadir. Badiiy g‘oya va mifologemaning uyg‘unligi uning poetikasida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Shu sababli ham Abdulla Oripov ijodi hozirgi zamon o‘zbek she’riyati rivojida o‘ta muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Abdulla Oripovning she’riyati o‘zbek adabiyotida taqdirni falsafiy, ruhiy va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib yoritgan eng chuqur qatlamlı ijod namunasidir. U taqdirni nafaqat muqaddas kuch, balki inson ruhiyatining ifodasi, xalq tarixi va shaxsiy kechinmalar manbai sifatida talqin qilgan.

Shoir poetikasida mifologema - ramziy timsollarning faqat bezak emas, balki estetik va semantik yuklama beruvchi asosiy badiiy vositadir. Taqdir obrazining ifodalanishida u xalq og‘zaki ijodi, diniy-ma’naviy meros va shaxsiy dunyoqarashni bir butun holatda uyg‘unlashtira oldi.

Abdulla Oripov she’riyatida taqdirga doir tushunchalar har doim insoniy izlanish, ma’naviy barkamollik va vijdon mezonlari bilan bog‘langan. Bu esa uni o‘z zamonasining poetik tafakkur egasi sifatida, uning ijodini esa o‘zbek she’riy tafakkurining eng yuksak namunalari qatoriga qo‘shadi.

Shunday qilib, maqolada ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Qaxramoni Abdulla Oripov she’riyatida taqdir mifologemasi nafaqat falsafiy mazmun, balki milliy tafakkur va badiiy g‘oyaning yuksak uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Bu esa uning poetik olamini chuqur o‘rganishga doimiy ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006.
2. Oripov A. Ilohiy komediya (Dante tarjimasi). - Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001.
3. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1987.
4. Potebnya A. A. Estetika va poetika. – Moskva: Iskusstvo, 1976. - 384 b.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 224 b.
6. Rasulova Z. Uslub va poetika: lingvopoetik tahlil asoslari. - Toshkent: Tafakkur, 2017. 276 b.
7. Qosimova N. Mifologik obrazlarning poetik talqini (o‘zbek she’riyati misolida). - Toshkent: Fan, 2015. – 160 b.
8. Zaripov, A. Abdulla Oripov tabiat poetikasida lirik qahramon masalasi // Tadqiqotlar.uz. – 2023. – URL: <https://tadqiqotlar.uz/index.php/tadqiqotlar/view/1222>
9. Qosimova N. Mifologik obrazlarning poetik talqini (o‘zbek she’riyati misolida). – Toshkent: Fan, 2015. – B. 102.